

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqto'v Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZIYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE ROLE OF MARGINAL GROUPS IN THE HISTORICAL CULTURAL PROCESSES OF UZBEKISTAN

Zaripova Hulkar Tokhir qizi

Mirzo Ulugbek National University

PhD candidate in Philosophy

E-mail: hulkar.zaripova@gmail.com

Abstract. This article is devoted to a comprehensive analysis of the genesis, evolution, and functional role of marginal strata in the historical and cultural processes of Uzbekistan, based on socio-philosophical and historical-sociological approaches. It also elucidates the theoretical and methodological foundations of the phenomenon of marginalization and reveals the dialectical interrelations between the center and the periphery within the system of social stratification of society.

Keywords: society, group, historical, marginalism, identification, civilization, epistemological, identity, contradiction, development.

O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI

Zaripova Hulkar Toxir qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universitet

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistondagi tarixiy-madaniy jarayonlarda marginal qatlamlarning genezisi, evolyutsiyasi hamda funksional o'rnini ijtimoiy-falsafiy va tarixiy-sotsiologik yondashuvlar asosida kompleks tahlil etishga bag'ishlangan. Shuningdek, marginalizatsiya fenomenining nazariy-metodologik asoslari yoritilib, jamiyat ijtimoiy stratifikatsiyasi tizimida markaz va periferiyaning o'zaro dialektik munosabatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, guruh, tarixiy, marginalizm, identifikatsiya, sivilizatsiya, epistemeologik, identitet, ziddiyat, taraqqiyot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N13>

Kirish. O'zbek jamiyatida marginal qatlamlarning shakllanishi ko'plab tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tarix davomida ijtimoiy qatlamlar o'zaro murakkab munosabatda bo'lib, ayrim guruhlar jamiyatning markazidan chetda qolib, o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy huquqlaridan mahrum bo'lgan. Bu jarayon, avvalo, feodal tuzumning mavjudligi, kolonial bosqinchilik va keyinchalik sovet davrining ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy harakatlari natijasida yanada mustahkamlangan. Bu jarayonlar oqibatida marginal qatlamlar ko'pincha mehnat bozoridan chetlashtirilgan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridan yetarlicha foydalana olmagan, natijada ularning ijtimoiy o'zlashtirilishi sekinlashib borganligini ta'kidlash zarur. Shu ma'noda, tarixiy jarayonlarda bunday chetlanish holatlari ma'naviy

marginallashuvni yuzaga kelishiga olib kelgan. Ya'ni, ayrim guruhlarining qadriyatlari, dunyoqarashi va madaniy tajribasi umumiy tarixiy ongda ikkinchi darajali yoki ahamiyatsiz sifatida baholangan. Bu esa jamiyatning o'z tarixiy o'tmishini to'liq va haqqoniy anglashiga to'sqinlik qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qadimgi manbalarni o'rganishda o'zbek jamiyatning ayrim guruhlarini tarixiy voqealarda aks etmay qolgan holatlar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar va lokal madaniyatlar (shaxsiy manbalar, tarixiy qissalar) natijasi sifatida ma'naviy marginallashuv ko'rinishiga ega bo'lgan. Bu holat tarixshunoslikda "marginal tarix" sifatida ham tahlil qilinishi mumkin.

Marginal tarix rasmiy tarixiy normotivlardan tashqarida qolgan tajribalar, qarama-qarshi nuqtai nazarlar va lokal madaniyatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, u tarixni biryoqlama emas, ko'p ovoqli jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shaxsiy manbalar, og'zaki tarix, tarixiy qissalar, folklor namunalarining tahlili aynan shu yo'nalishning muhim metodologik asosini tashkil etadi. Shu bois, zamonaviy tarix falsafasi va tarixshunoslikda marginal tarixni o'rganish nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-ijtimoiy ahamiyatga ega. U tarixiy adolatni tiklash, madaniy xilma-xillikni e'tirof etish hamda jamiyatda inkluziv tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. O'zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotida marginal qatlamlar jamiyatning ichki xilma-xilligi va dinamik rivojlanishining muhim unsuri sifatida shakllangan. Ularni inkor etish yoki chetlashtirish emas, balki bag'rikenglik, madaniy dialog va inkluziv ijtimoiy siyosat orqali jamiyat hayotiga faol integratsiya qilish barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarida marginal qatlamlar eng avvalo sivilizatsiyalar tutashuvi mahsuli, identitet izlanishlarining tabiiy natijasidir. Shuningdek, global va milliy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat maydoni sifatida shakllangan. Ularni inkor etish emas, balki madaniy dialog, bag'rikenglik va inkluzivlik orqali jamiyatning barqaror va uyg'un rivojlanishiga xizmat qildirish zamonaviy falsafiy yondashuvning asosiy vazifasidir. Xususan, O'zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarda marginal qatlamlar:

- a) etnik guruhlar,
- b) madaniy identifikatsiyadagi muvosiqliliklar,
- s) global madaniyat bilan milliylik o'rtasidagi ziddiyatlar,

kabi o'ziga xos kontekstda shakllangan bo'lib, bu jarayonlarni tahlil qilish uchun bir qator ilmiy manbalar muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston hududi qadimdan Sharq va G'arb, Shimol va Janub sivilizatsiyalari tutashgan makon sifatida shakllangan. Buyuk Ipak yo'li doirasida yuzaga kelgan migratsion, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida bu hududda turli etnik guruhlar istiqomat qilib kelgan. Ushbu tarixiy jarayon etnik xilma-xillik bilan bir qatorda ayrim guruhlarining madaniy jihatdan markaziy identitetdan chetqatda qolishiga ham sabab bo'lgan. Zero, O'zbekiston hududi tarixan **sivilizatsiyalar chorrahasi** bo'lib kelganligi va bu jarayonda eng avvalo turkiy, eroniy, arab, rus va g'arb madaniyatlari o'zaro ta'sirga kirishganligini ta'kidlash lozim.[1]. Bu jarayon etnik xilma-xillikni kuchaytirgan va ayrim guruhlarining madaniy jihatdan "markaz"dan nisbatan chetda qolishiga olib kelgan. Falsafiy nuqtai nazardan, etnik marginalizatsiya ko'pincha "boshqa"ni tan olish muammosi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon Ch.Teylor tomonidan ilgari surilgan "tan olinmaslik adolatsizligi" konsepsiyasi orqali izohlash mumkin. Zero, etnik

marginal guruhlar jamiyat madaniy xotirasini saqlash, an'anaviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish orqali milliy madaniyatning rang-barangligini ta'minlab kelgan.

Tahlil va natijalar. Zardushtiylikning muqaddas manbasi "Avesto"da jamiyatda ijtimoiy guruhlar: kohinlar (atravanlar), harbiylar (rataistralar), dehqon-chorvadorlar (vastyra-fshuyant), hunarmandlar (xutlar) tabaqalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Kohinlar va harbiylar hukmron tabaqalar bo'lib, hokimiyatni boshqarganlar. Ayniqsa, kohinlarning mavqeyi baland bo'lgan. "Oila, qishloq, tuman, shahar va viloyatlar unvonli diniy yo'l boshchilar tomonidan boshqarilgan. Podsho va uning a'yonlari kelib chiqqan harbiylar tabaqasining mavqeyi ham baland bo'lgan"[2]. Asosiy ishlab chiqaruvchilar dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar bo'lgan. Avestoda qullarning mavjudligi bayon etilgan. Ular jamiyat hayotida katta rol o'ynamagan. Falsafiy jihatdan bunday tuzilma jamiyatda hokimiyat va mehnatning keskin ajralishini ifodalaydi. Ishlab chiqaruvchi tabaqalar ya'ni dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar jamiyatning moddiy asosini yaratgan bo'lsalar-da, siyosiy va ma'naviy qarorlar qabul qilish jarayonlaridan chetda qolgan. Bu esa fikrimizcha, ijtimoiy adolat va tenglik masalalarining cheklangan doirada talqin etilganini ko'rsatadi. Qullarning mavjudligi va ularning jamiyat hayotida faol rol o'ynamagani esa ijtimoiy tuzilmaning quyi qatlamlarida **ijtimoiy ko'rinmaslik** holatini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, "Avesto"da ifodalangan ijtimoiy tuzilma qadimgi jamiyatlarda hokimiyat, mehnat va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarning qanday shakllanganini ko'rsatadi. Bu model ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy tengsizlik va tabaqaviy marginallashtirishni muqaddaslashtirilgan me'yor sifatida mustahkamlagan. Shu bois, Avestodagi ijtimoiy tizimni falsafiy tahlil qilish bugungi kunda ham ijtimoiy adolat, hokimiyat legitimatsiyasi va marginallik muammolarining tarixiy ildizlarini anglash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk Yunon kolloniyalashtirilishi (mil.avv. VIII-VI asrlar) O'zbekiston hududiga bevosita ta'sir qilmagan bo'lsa-da, u **bilvosita ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy mexanizmlar orqali** marginallik tushunchasini tushunishda va tarixiy analogiya sifatida foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, savdo yo'llari, madaniy almashuv va hududiy tafovutlar O'zbekistonning tarixiy-madaniy jarayonlarida chekka guruhlarining shakllanishini va ularning jamiyatdagi o'rnini tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, Buyuk Yunon kolloniyalari Ipak yo'li bo'ylab madaniy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu orqali Sharq hududlari, jumladan Markaziy Osiyo, o'zining mahalliy madaniy qatlamlari va tashqi aloqalari orqali yangi g'oyalar va savdo-praktikalarni qabul qilgan. Natijada, ayrim guruhlar bu jarayonda markaziy savdo-siyosiy tizimdan chetda qolib, bilvosita **madaniy va iqtisodiy marginallashtirish**ga duch kelgan.[3]

Yunon koloniyalari orqali yuzaga kelgan yangi iqtisodiy va madaniy model bilan mahalliy jamiyatning an'anaviy tuzilmalari o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan. O'zbekiston hududidagi kichik etnik va ijtimoiy guruhlar, masalan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan yoki chekka hududlarda yashovchi aholilar, bu yangi tizimdan nisbatan chetda qolib, **ijtimoiy va iqtisodiy marginallashtirish**ni boshdan kechirgan. Shu bilan birga, ushbu jarayon tarixiy analogiya sifatida O'zbekiston hududidagi **ko'chmanchilik, urbanizatsiya va hududiy tafovutlar natijasida yuzaga kelgan marginal qatlamlarni** yuzaga keltirgan. Masalan, ichki migratsiya va shaharlar bilan qishloq o'rtasidagi tafovut, iqtisodiy va madaniy chetlanish, markaziy tizimdan nisbatan ajralish kabi marginallik ko'rinishlariga olib kelgan. O'zbekiston

tarixiy-madaniy jarayonlarida marginal qatlamlarni o'rganishda sotsial-falsafiy, madaniyatshunoslik, postkolonial va tizimli yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy tuzilmaning barcha qatlamlari teng darajada integratsiyalashmaydi. Ayrim ijtimoiy guruhlar tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida jamiyatning markaziy ijtimoiy institutlaridan chetda qoladi va marginal holatga tushadi. O'zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotida bunday qatlamlarning shakllanishi va transformatsiyasi muayyan tarixiy davrlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni o'rganish kompleks falsafiy yondashuvni talab etadi.

Sotsial-falsafiy yondashuv marginal qatlamlarni jamiyat taraqqiyotining ichki ziddiyatlari mahsuli sifatida talqin etadi. Bu yondashuvda jamiyat statik tuzilma emas, balki doimiy harakat va o'zgarishda bo'lgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida qaraladi. O'zbekiston tarixiy tajribasida marginal qatlamlarning shakllanishi an'anaviy ijtimoiy tuzilmaning buzilishi, mustamlakachilik va sovet modernizatsiyasi va bozor munosabatlariga o'tish jarayoni bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan. Ushbu jarayonlar jamiyatda ijtimoiy moslashuv darajasi turlicha bo'lgan guruhlarining yuzaga kelishiga olib kelgan. Bizning fikrimizcha, sotsial-falsafiy yondashuv marginal qatlamlarni ijtimoiy tanazzul belgisi sifatida emas, balki jamiyatdagi strukturaviy muammolarni ochib beruvchi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini yuzaga chiqaruvchi subyekt sifatida baholash mumkin.

Madaniyatshunoslik yondashuvi marginal qatlamlarni madaniy identitetning izdan chiqishi va qayta shakllanishi jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qiladi. O'zbekiston tarixiy-madaniy makonida bu holat an'anaviy va modern madaniyatlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. Sovet davrida milliy madaniyatning standartlashtirilishi va ideologiyalashtirilishi natijasida ayrim madaniy amaliyotlar cheklangan, natijada jamiyatda madaniy marginal guruhlar vujudga kelgan. Mustaqillikdan keyingi globallashuv jarayonlari esa yangi madaniy gibril shakllarni yuzaga chiqardi. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan marginal qatlamlar eng avvalo madaniy chegaralarda mavjud bo'lgan subyektlar, yangi ijtimoiy ramz va ma'nolarni ishlab chiquvchi guruhlar va jamiyat madaniy yangilanishining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.[4]

Postkolonial yondashuv esa marginal qatlamlarni mustamlakachilik merosi bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Rossiya imperiyasi va sovet davrida O'zbekiston hududida mahalliy bilim tizimlari va ijtimoiy institutlarning cheklanishi natijasida muayyan ijtimoiy guruhlar siyosiy va madaniy jihatdan chetlashtirilgan. Bu yondashuv marginal qatlamlarni rasmiy tarixiy diskursdan chetda qolgan, ovozi eshitilmagan subyektlar sifatida ko'rib chiqadi. Ularning ijtimoiy tajribasi uzoq vaqt davomida mafkuraviy filtrlardan o'tmagan yoki e'tibordan chetda qolgan. Bizning fikrimizcha, postkolonial yondashuv marginal qatlamlarni o'rganishni tarixiy adolatni tiklash, milliy xotirani qayta tiklash va ijtimoiy ongni dekolonizatsiya qilishning muhim sharti sifatida baholash mumkin.

Tizimli yondashuv jamiyatni o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar majmui sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv doirasida marginal qatlamlarning mavjudligi jamiyat tizimlarida yuzaga kelgan disfunktsiyalar natijasi sifatida qaraladi. O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida institutsional moslashuvning sustligi, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzilishlar va ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi marginal qatlamlarning kengayishiga olib kelgan. Tizimli yondashuvga ko'ra, marginal

qatlamlar jamiyat barqarorligiga tahdid emas, balki tizimdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy indikator hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston tarixiy-madaniy jarayonlarida marginal qatlamlarni o'rganish kompleks falsafiy yondashuvni talab etadi. Zero, sotsial-falsafiy yondashuv ularni ijtimoiy ziddiyatlar va taraqqiyot omili sifatida ochib bersa, madaniyatshunoslik yondashuvi madaniy identitet va gibridlik jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Postkolonial yondashuv esa tarixiy adolatsizlik va epistemik tengsizlikni ochib bersa, tizimli yondashuv marginal qatlamlarni jamiyat barqarorligining muhim ko'rsatkichi sifatida talqin etadi. Zero, mazkur yondashuvlarning integratsiyasi marginal qatlamlarni muammo sifatida emas, balki o'zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy rivojlanishida faol subyekt sifatida baholashga imkon yaratadi.

G'arb madaniyati va global ommaviy madaniyat ta'siri milliy qadriyatlar bilan ziddiyat jarayonlariga olib keladi. Bu ta'sir milliy identifikatsiyani sinovdan o'tkazadi, an'anaviy madaniyat bilan zamonaviy global madaniyat o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirib, yangi marginal submadaniyatlarning yuzaga kelishini tezlashishiga olib keladi. Bu qarash o'zbek madaniyati tadqiqotlarida milliylik va global ta'sirlar o'rtasidagi munosabatni chuqur tahlil qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

O'zbekiston tarixiy-madaniy taraqqiyotida marginal qatlamlar jamiyatning ichki xilma-xilligi va dinamik rivojlanishining muhim unsuri sifatida shakllangan. Ularni inkor etish yoki chetlashtirish emas, balki bag'rikenglik, madaniy dialog va inkluziv ijtimoiy siyosat orqali jamiyat hayotiga faol integratsiya qilish barqaror taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, marginal qatlamlarning mavjudligi jamiyatdagi adolatsizlik, tengsizlik va ziddiyatlarning ochiq ko'rinishi sifatida qaraladi. O'zbek xalqi shakllanishida marginal qatlamlarning paydo bo'lishi va uning shakllanishi murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tarixiy bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Masalan, sovet davrida kollektivlashtirish, sanoatlashuv jarayonlari, demografik o'zgarishlar hamda mehnat migratsiyasi yangi marginal qatlamlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Xususan, "kollektivlashtirish 1920-1930-yillarda Sovet Ittifoqida qishloq xo'jaligini markazlashgan kollektiv xo'jaliklarga (kolxozlar va sovxozlar) birlashtirish siyosati bo'lgan"[5] Shuningdek, bu davrda **qishloq aholisining ijtimoiy tarkibining o'zgartirish jarayoni amalga oshirilgan**. Binobarin, kollektivlashtirish natijasida mustaqil dehqonchilik yo'q qilingan, yer va mol-mulk davlat tasarrufiga topshirilgan. Bu ko'plab kichik fermerlar va dehqonlarni qashshoqlashishiga, ish joyidan mahrum bo'lib, ijtimoiy himoyasiz qatlamga aylanishiga olib kelgan. Aynan, ushbu toifalar keyinchalik marginal qatlamlarni shakllanishiga zamin hozirlagan deb ta'kidlash mumkin.

Adabiyotlar tahlilicha, Sovet Ittifoqining sanoatlashtirish va jamoalashtirish (kollektivlashtirish) siyosati ma'muriy-buyruqbozlik vositasida amalga oshirilganligi va bu esa bir qator salbiy holatlarni keltirib chiqarganligini alohida ta'kidlash zarur. Sanoatlashtirish natijasida mamlakatda yuzlab sanoat korxonalari, temir yo'llar, gidroelektrstansiyalar qurilgan bo'lsa-da, mamlakatda bozor munosabatlariga barham berilganligi, xususiyl mulk yo'q qilinganligi oqibatida insonlarni davlatga qaramligi boshlandi, mamlakat iqtisodiyoti "yuqoridan" tuzilgan reja (plan) asosida boshqariladigan bo'lib, odamlar ulkan rejalar va g'oyalarni amalga oshirishda bir kichkina vosita bo'lib qoldilar. "Qishloq joylarda kolxozlarga kirishni xohlamagan dehqonlarni saylov huquqidan mahrum etib ularni «mahrum

bo'lganlar»deb ataldi, quloq qilindi, ya'ni mol-mulklari musodara etildi. Jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida, ayniqsa, boy dehqon (quloq)lar aziyat chekkan"[6]. Quloqlarga "xalq dushmanlari" degan tamg'a bosilib, ularni sinf sifatida yo'q qilish maqsad qilib qo'yilgan. Ayniqsa, **marginal qatlamlar sifatida quloqlashtirilgan dehqonlar va ishchi sinfini alohida aytish mumkin. Jumladan, quloqlar** sifatida boy dehqonlar qatag'on qilingan, ularning mulki tortib olingan va yo'q qilingan. Ular ko'pincha shaharlarga ko'chib, ish topolmay, marginall qatlamga asta-sekinlik bilan aylanib borgan. Shu bilan birga, qishloqdan shaharlarga ko'chib kelganlar, ishchi va dehqonlar orasida ijtimoiy notenglik va iqtisodiy qiyinchiliklar paydo bo'lgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy bosim sababli ham xalq ancha og'ir ahvolni boshidan o'tkazgan. Kollektiv xo'jaliklarda samaradorlik pastligi, ocharchilik va ishsizlik ko'payishi, qishloq aholisi orasida ko'plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargan. Bu esa ko'plab insonlarni o'zini jamiyatdan tashqarida, marginal holatda his qilishga olib kelgan, deb asoslash mumkin. Bizning fikrimizcha, Sovet Ittifoqi amalga oshirgan kollektivlashtirish marginall qatlamlarni shakllanishiga katta ta'sir qilgan. Bu qatlamlar jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan zaif pozitsiyada bo'lib, ko'plab zo'ravonlik va qatag'onlarga uchragan. Yevropa millatiga mansub ming-minglab qizil askarlarning Turkiston o'lkasiga safarbar etilishi oqibatida masjid va madrasalar vayron qilindi. Mahalliy aholining urf-odatlaridan xabarsiz bo'lgan "qizil bosqinchilar" diniy muassasa va tashkilotlarni otxonalarga, qurol-yarog', oziq-ovqat omborlariga, harbiy qismlarning kazarmalariga aylantirdilar. "Oxir-oqibatda diniy tuyg'ulari poy-mol qilingan xalqning sovet hokimiyatiga bo'lgan umidlari va ishonchi so'ndi. Dastlabki yillardayoq dindor kishilar va ruhoniylar sovet hokimiyatining dushmani sifatida ta'qib ostiga olindi. 1917-1920-yillarda sovet hokimiyatining dinga munosabati daxriylikdan iborat bo'lgan edi"[7].

Biroq, Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat sovet hokimiyati organlariga bu masalada ehtiyotkorlik bilan ish tutish zarurligini ko'rsatdi.

Xulosa. Mustaqillik yillarida mazkur sohada davlatimiz va hukumatimiz tomonidan amalga oshirib borilgan islohotlar va vijdon erkinligi borasida qabul qilingan qator qonunlar, milliy ma'daniy markazlarning tashkil etilishi va barcha diniy va milliy qadriyatlarining tiklanishi uchun keng yo'l ochib borilishi hamda davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, bu sohaning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Markaziy Osiyodagi tarixiy etno-madaniyatlar, jumladan O'zbekistondagi madaniy guruhlar, ko'p asrlar mobaynida integratsiya, transformatsiya va konflikt jarayonlaridan o'tgan. Bunday jarayonlar madaniy o'zgarishlar, yetakchilik va mintaqaviy siyosiy ta'sirlar bilan bog'liqligini ta'kidlash zarur. Bu esa, markaziy madaniyatdan chetda qolgan qatlamlarning hayoti va ongida marginallik shakllariga olib kelgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. F.Xasanov. Madaniyat va migratsiya. – Buxoro: Ilm Ziyo, 2022. – 292 b.
2. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2014. – B. 22.
3. G'.Akramov. Marginallashuvni yengishda falsafaning roli: imkoniyatlar va cheklovlar // Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, – 1.1 (2024): – B. 302.
4. D.Yusupov. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ishtirok. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2020. – 258 b.
5. Fitzpatrick S. Stalin's Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization. – Oxford University Press, 1994. – P. 9.

6. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2014. – B. 167.
7. R.To'laganov. Shaxs va jamiyat: psixologik yondashuv. – T.: Ma'naviyat, 2022. – 206 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).